

MUTAXASSISLARNI DUAL TIZIMI ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Ma'rufjon Baratov

*"ISFT" Instituti "Gumanitar fanlar"
fakulteti uslubchisi*

Abstract

One of the main tasks facing the new professional education system is the training of highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the local and foreign labor market.

Key words

activity, profession, integration, dual education system, specialist, production.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash orqali mintaqadagi investitsiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish vositalaridan biri bu dual ta'lim tizimi bo'lib, uning afzalligi – bu mutaxassislarni tayyorlashda o'quv va ishlab chiqarish sohalarining hamkorligi hamda bitiruvchilarni yuqori darajada ish bilan ta'minlashdir.

Dual ta'lim zamonaviy professional ta'limning ta'lim standartlari asosida kompetentlik yondashuvining asosiy tamoyillariga (nazariya va amaliyotning birligi, o'quv jarayonida fanlararo kompleks yondashuv, ko'nikma va bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llashga e'tibor) to'liq javob beradi. Shuning uchun dual ta'limni professional ta'limning o'quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalarida muhandis-pedagogik kasbiy ta'lim mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual tizimini qurishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda biz uning quyidagilarga mosligi nuqtayi nazaridan kelib chiqqanmiz:

- ta'lim maqsadlarining ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga;
- ta'lim faoliyatining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy dunyoqarash asoslariga tashkiliy yondashuv;
- muhandis-pedagogik kasbiy ta'lim metodologik xususiyatining didaktik asoslariga.

Mazkur talablarga javob beruvchi asosiy, konseptual ahamiyatga ega g'oyalarga oydinlik kiritish kasbiy ta'limning maxsus integrativ sohasi sifatida muhandis-pedagogik kasbiy ta'lim

rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazuvchi "ichki", fenomenologik va metodologik, shuningdek ijtimoiy-pedagogik xususiyatga ega tamoyillar asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot izlanishlarining birinchi yo'nalishi mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishning keng ko'lamli ilmiy-nazariy va praktsiologik jihatlarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish bilan bog'liq bo'lgan. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, hozirgi kunga kelib, mamlakat pedagogikasida uzluksiz ta'lim muammolarini intensiv tarzda tatbiq etish davom etmoqda. Shu bilan bir qatorda mazkur muammolar majmui alohida olimlar (V.N.Gurchenko, V.A.Goroxov, L.A.Koxanova, Ye.V.Tkachenko v.b.) tomonidan yetarlicha metodologik va nazariy jihatdan yoritilmagan.


Darhaqiqat, asta-sekin shakllanib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimi alohida bo'g'inlarining amal qilish masalasi yaxshiroq o'rganilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan (O.S.Abasova, A.M.Nikitina, T.G.Kalacheva, Yu.A.Shumova v.b.).

Biroq mazkur tadqiqotlar ko'pincha tarqoq tasodifiy xususiyatga ega bo'lib, hamon konsepsiyani rivojlantirish bosqichida qolib ketgan.

Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining eng ehtimolli yoki optimal tarkibiy tuzilishiga nisbatan ko'pgina nuqtayi nazarlar mavjud. Bunda hududiy va sohaviy tizimlarning ko'pgina variantlari paydo bo'lgan bo'lib, ularning xilma-xilligini uchta turga bo'lish mumkin:

- *uzluksiz kasbiy ta'limning tashkiliy-funksional tarkibiy tuzilishi;*
- *tizimli uzluksiz kasbiy mazmun;*
- *inson o'zidan o'zi rivojlanuvchi tizim.*

Uzluksiz kasbiy ta'limning tashkiliy-funksional tarkibiy tuzilishi tarafdorlari B.S. Gershunskiy, V.G.Osipov, A.A.Verbiskiy, V.A.Yurisov, H.H. Nechayev, V.G.Onushkin va boshqalar mavjud nazariy ishlanmalar asosida uzluksiz ta'limning bir nechta modelini keltirib o'tgan. Masalan, V.G.Osipov uzluksiz ta'limning quyidagi tarkibiy tuzilishini taklif qiladi (1-rasm).



1-rasm. Uzlüksiz ta'limning tarkibiy tuzilishi
(V.G. Osipov bo'yicha)


tomonidan kasbiy ta'lim boshlanishidan avval olinadigan ta'limdir. Uzlüksiz ta'lim modelining tarkibiy tuzilishi 2-rasmda keltirilgan.

Umuman olganda, uzlüksiz ta'lim mazkur mualliflar tomonidan muayyan tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan bir butun tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Unga bir butunlikni xususiyatlarining integrativligi, masalan, ta'limda barcha bo'g'inlarning izchilligiga bag'ishlaydi.

Uzlüksiz ta'limning har qanday modeli va uning tahlili an'anaviy ta'lim tizimi bilan qiyoslanmagan bo'lsa tugallanmagan hisoblanadi. Agar uzlüksiz ta'lim ko'pchilik mutaxassislarning fikriga ko'ra yangi paradigma bo'lsa, u avvalgisidan qaysi jihatlari va o'lchamlari bilan farq qilishi va biridan ikkinchisiga o'tishining sabablari nimadan iborat ekanligi; uzlüksiz ta'lim oddiygina an'anaviy ta'lim tizimining buzilishimi yoki uni dialektik tarzda inkor etadimi va nihoyat vaqt mobaynida eng jiddiy va haqqoniy tekshiruvdan o'tganligi tekshiriladi.

O'ylashimizcha, uzlüksiz ta'lim haqiqatda ta'lim rivojlanishining yangi mazmun-mohiyat paradigmasidan iborat bo'lib, odatda an'anaviy deb ataluvchi eski ta'lim paradigmasidan yetarlicha radikal (keskin) tarzda ajralishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim konsepsiyasi, uning

Mazkur muallifning fikriga ko'ra, agar uzlüksiz ta'lim tizimining barcha tarkibiy tuzilishini konsentrik doiralar sifatida tasavvur qiladigan bo'lsak, uning eng markaziga formal (rasmiy) ta'limni joylashtirish zarur; undan keyingi doira bevosita norasmiy ta'limni ifodalasa, va nihoyat tashqi ikkiga bo'lingan doira informal va mustaqil ta'limni aks ettiradi. Mazkur doirada eng muhim unsur – formal (rasmiy) ta'lim hisoblanadi. U asosiy boshlang'ich ta'limni ifodalaydi. Bu inson



2-rasm. Uzlüksiz ta'lim tizimining tarkibiy tuzilishi

maqsadi, mohiyati, vazifalari, tamoyillari va tashkiliy tuzilishi qayta ko'rib chiqiladi. Chunonchi, V.P.Zinchenkning fikriga ko'ra, uzluksiz ta'lim – ta'lim faoliyatining yangi usuli bo'lib, uning maqsadi shaxsni bir butun rivojlantirish, ijodiy salohiyatini boyitish, kuch va qobiliyatlarining doimiy ravishda o'stirishdan iborat.

Shunday qilib, mazkur jihatdan oliy ta'lim muassasalarida muhandis-pedagogik kasbiy ta'limning dual tizimini qurish uchun uzluksiz muhandis-pedagogik kasbiy ta'lim gumanistik tamoyillarni ishlab chiqarish sohasi va jamiyat ehtiyojlari bilan optimal tarzda mujassamlashtirishga imkon beradi degan qoida konseptual ahamiyatga ega bo'ladi.

Darhaqiqat, oliy ta'limning metodologik xususiyatidan kelib chiqqan holda muhandis-pedagogik kasbiy ta'limning dual tizimini qurishning maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi konseptual ahamiyatga ega uchinchi g'oyasini quyidagicha izohlash mumkin: muhandis-pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash jarayonida ta'lim tizimini dual qayta qurish uning tizimli yaxlitligini ifodalagan holda muhandislik-pedagogik ta'limning integrativligini ta'minlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, mazkur ajratib ko'rsatilgan konseptual ahamiyatga ega g'oyalar muhandis-pedagogik kasbiy ta'limning dual tizimini yaratishning qadriyatli-maqsadli (aksiologik), mazmunli-tashkiliy (ontologik) va texnologik asoslarining metodologik yaxlitligini ta'minlagani bois, ular ta'limni konseptual modellashtirishning nazariy-metodologik asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже. Дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2003. – 327 с.
2. Ismailova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Diss... ped. fan. d-ri. – T.: 2006. – 345 b.
3. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nomz. – T.: 2000. – 186 b.
4. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Diss. ... ped. f. d. – T.:2007. – 315 b.
6. Ximmataliyev D.O. Integratsiya va fanlararo aloqadorlik tushunchalarining mazmun mohiyati// Kasb-hunar ta'limi. -Toshkent, 2016. №6. -B.13-16.